



## **TASVIRIY MATN YARATISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA METODIK QO‘LLANMALAR TAHLILI**

**Zebiniso Davronova Bahtiyor qizi,**  
*ToshDO‘TAU doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206598>

***Annotatsiya.** Mazkur tezida ona tili ta’limida o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirishning “Ona tili” darsligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun tayyorlangan metodik qo‘llanmalarining mavjud holati tahliliy bayon etildi. Ushbu tahlillar asosida tasviriy matn va uning turlari sinflar kesimida tizimli, tadrijiy tarzda berilmagani, uni tushuntirish bo‘yicha to‘liq tavsiyalar ishlab chiqilmagani, baholash mezonlari berib o‘tilmagani hamda metodik kitoblardagi imkoniyatlar va kamchiliklar ko‘rsatilib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi kitobi, 7-sinf, 8-sinf, 9-sinf, tasviriy matn, mavjud holat, nutqiy ko‘nikma, tahlil, matn yaratish.*

Bugungi kunda “Ona tili” fani ta’lim mazmunining asosiy e’tibori o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu ko‘nikmani shakllantirishda matn tuzilishi, matn turlari, uni yaratish strategiyalarini o‘rganish, matndagi xatboshilarni shakllantirish, paragraflarga ajratish, rejalarga bo‘lish, matn qismlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish, uning qoralamasini tayyorlash, qayta ko‘rib chiqish, ushbu matn turini baholash kabi ta’lim mazmunini ishlab chiqishning nazariy masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ta’lim mazmunining asoslaridan biri “o‘qituvchi kitoblari” hisoblanib, ular o‘qituvchilar uchun nazariy hamda metodik manba hisoblanadi. Maktab darsliklari yuzasidan o‘qituvchilar uchun tayyorlangan metodik qo‘llanmalarining mavjud holatini o‘rganish orqali ular bera oladigan imkoniyatlarni qo‘llash hamda ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Quyida yuqori sinflar (7–9-sinf) “Ona tili” darsligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun tayyorlangan metodik kitoblar tahlili orqali o‘quvchilarda tasviriy matn yozish ko‘nikmasini rivojlantirishning mavjud holatini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

7-sinf “Ona tili” darsligi bo‘yicha tayyorlangan “o‘qituvchi kitobi”da [1] 7-sinf o‘quvchilarining egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalari qatorida xatboshini to‘g‘ri ajrata olish berilgan bo‘lib, asosiy e’tibor grammatik vositalardan amalda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishga qaratilgan. “Ko‘rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi” mavzusi bo‘yicha berilgan topshiriqda doskaga rangli rasm “Qishloq tasviri” osib qo‘yiladi. Ko‘rsatish olmoshlarini ishtirok ettirib matn tuziladi. Bunda guruh

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



a'zolari fikrlashib matnni shakllantiradilar. Matn tuzib bo'lingach, guruh a'zolari tomonidan matnlar o'qib beriladi [1:36]. 54-darsda qish tasviri tushirilgan rasm asosida (rasm ustida suhbat o'tkazish, reja tuzish, bayon yozish) bayon olinadi (90-bet).

7-sinf “Ona tili” darsligi bo'yicha o'qituvchilar uchun mo'ljallab yozilgan metodik qo'llanmada [2] til qobiliyatining to'rt xil kognitiv malakaning o'zaro bog'ligi asosida rivojlanishi aytilib, eshitib tushunish va o'qib tushunish malakalariga to'xtalib o'tilgan. Mazkur metodik qo'llanmaning o'qituvchilar uchun tayyorlangan yo'riqnomasining mazmuni 6-sinf “Ona tili” darsligi bo'yicha o'qituvchilar uchun mo'ljallangan metodik qo'llanma mazmuni bilan o'xshash bo'lib, unda quyidagilar keltirilib o'tilgan: berilgan tasvir (rasm, infografika, chizma, sxema, jadval), sarlavha, reja asosida matn yozdiriladi; matnning qoralama nusxasini tayyorlash haqida ko'rsatma beriladi; har bir o'quvchi yozgan matnga munosabat bildiriladi; matn tuzilishi, mazmuni, gap qurilishi tekshiriladi; har bir o'quvchining yozma savodxonligi, gaplarni bir-biriga bog'lashi, tinish belgilaridan foydalanishi tekshiriladi; har bir o'quvchining yozganlari, xato va kamchiliklari yuzasidan munosabat bildiriladi; matnni tahrir qilib, qayta yozish o'rgatiladi.

Mazkur metodik qo'llanmada tasviriy matn yaratish bo'yicha berilgan mashq va topshiriqlar bo'yicha metodik tavsiyalar berib borilgan. Masalan, “Qutb yulduzi” mavzusi bo'yicha “Berilgan til birliklaridan foydalanib chizma asosida dunyo tomonlari va oraliq tekisliklar joylashuvini tushuntiring” topshirig'i berilgan. “Mazkur topshiriq o'quvchilarning rasmdagi chizmalarni tushunib, tasvirlab berish hamda joylashuvga oid til birliklaridan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan” [2:35]. “Tasavvur qiling, siz shimolga qarab turibsiz, shu holatda turganingizda yon-atrofingizda nimalar bor? Ularni tasvirlab yozing” topshirig'ida o'quvchilarning bog'lanishli nutq tuza olishlari hamda joylashuvni tushuntirishga oid til birliklaridan to'g'ri foydalana olishlariga diqqat qaratiladi. Joy tasvirining ketma-ketligi [2:139], tasvirdagi detal orqali izohlash [2:148] kabilar yuzasidan mashq va topshiriqlar berilgan bo'lib, ular bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Metodik qo'llanma yakunida shakllantiruvchi baholash yuzasidan metodik tavsiyalar hamda essen baholash mezonlari keltirilib o'tilgan. Ammo matn yaratish, xususan, tasviriy matn yaratishni baholash bo'yicha tavsiya va mezonlar mavjud emas.

8-sinf “Ona tili” darsligi bo'yicha o'qituvchilar uchun mo'ljallab yozilgan metodik qo'llanmada [3] quyidagi metodik tavsiyalarga e'tibor qaratishimiz mumkin:



Darsda, ko‘pincha, oz vaqt ortib qoladi. Shunday paytlarda mustaqil ishni amalga oshirish, ya‘ni tasviriy matn yaratish maqsadga muvofiq. Rasmni slayd orqali namoyish qilish yoki suratning o‘zini ko‘rinarli qilib ilish mumkin. Tuziladigan matn ijodiy xarakterda bo‘lsin: maqola, intervyu, hikoya yoki she‘riy shaklda yozish mumkin [3:115].

16-mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar “O‘zbekistonda kuz” rasmi asosida tasviriy matn yaratishadi. “Zanjir” usulida har bir o‘quvchi bittadan gap aytib, bog‘lanishli nutq hosil qilinadi. O‘quvchilar hikoyasini o‘qituvchilar to‘ldiradi. Yordamchi so‘zlardan unumli foydalanish topshirig‘i bilan taassurotlarini daftarga yozadilar. O‘quvchilar tuzgan matn o‘zaro tekshirish yo‘li bilan tahlil qilinadi. Bunday usul o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘zaro tekshirishda muomala-munosabat odobiga rioya qilish ta‘kidlanadi.

9-sinf “Ona tili” darsligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun mo‘ljallab yozilgan metodik qo‘llanmada [4] insho haqidagi nazariy ma‘lumotlar, nutq uslublari, qo‘shma gap va uning turlari ustida ishlash yuzasidan vazifalar berilgan.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, 7-sinf darsligi bo‘yicha yozilgan metodik qo‘llanmada matnni o‘qib tushunish, yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, matnda ma‘lum tushunchani ifodalayotgan so‘zlarni va so‘z birikmalarini topish, matndagi jumlaning o‘z so‘zlari bilan ifoda etish, so‘zning kontekstual ma‘nosiga e‘tibor qaratish, 8-sinf darsligi yuzasidan tayyorlangan metodik qo‘llanmada matn va lug‘at bilan ishlash, izohli diktant ustida ishlash, 9-sinf darsligiga yozilgan metodik qo‘llanmada insho nazariyasi bo‘yicha ma‘lumotlar, insho turlari, unga reja tuzish, sodda va murakkab reja hamda epigraf tanlash kabi masalar yuzasidan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, yangilangan darsliklar bo‘yicha yaratilgan metodik qo‘llanmalarda asosiy e‘tibor nutqiy ko‘nikmalar va ularni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, tasviriy matnga oid tushunchalar hamda tavsiyalar mavjud. Ammo tasviriy matn turlari va uni sinflar kesimida tadrijiy tarzda o‘qitish va ushbu matn turining baholash mezonlari bo‘yicha to‘liq tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Ona tili. 7-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2011.
2. Ona tili. 7-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
3. Ona tili. 8-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2020.
4. Uluqov N.M., Nurmanova D.A. Ona tili. 9-sinf. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent: Tasvir, 2006. – 128 b.